N.M. Usmanova, V.Y. Uvarova,
G.F. Buzikova, O.Sh. Yevstafeva

O‘qish savodxonligi
4-sinf
I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik



Yangi nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI!
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2026

UO‘K: 808.545:373.3.016(075.3)
KBK 74.202.4+78.303ya72
O‘ 97

Usmanova N. M.
O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism / N. M. Usmanova, V. Y. Uvarova, G. F. Buzikova, O. Sh. Yevstafeva. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2026. – 160 b.

Taqrizchilar:

M. I. Xujayeva – Toshkent shahridagi 142-ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;

M. A. Raxmanova – Toshkent shahridagi 256-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar


Og‘zaki topshiriq


Juft bo‘lib ishlang


Yangi mavzu bayoni


Mantiqiy topshiriq


Bu qiziq!


Izohli lug‘at


Savollarga javob bering


QR-kodni skanerlang


Loyiha ishi


Uyga vazifa


Dars yakuni

ISBN 978-9910-586-85-9

© N. M. Usmanova va boshq.
© “Novda Edutainment”, 2026

Aziz bolajonlar!

Qo‘lingizdagi O‘qish savodxonligi darsligi sizni mo‘jizaviy kitoblar olamiga yetaklovchi yo‘lboshchingiz bo‘ladi. Uning sahifalarida sizni bir-biridan qiziqarli hikoyalar, ertaklar, she’rlar va matnlar kutmoqda. Turli adiblarning asarlarini mutolaa qilar ekansiz, yangi qahramonlar bilan tanishasiz, atrof-olam haqida ko‘plab foydali bilimlarga ega bo‘lasiz. Kitoblar sizga insonlarni, ularning his-tuyg‘ulari va amallarini teranroq anglashga ko‘maklashadi. Siz o‘qiganlaringiz haqida o‘z fikringizni bayon etish va to‘g‘ri xulosalar chiqarishni o‘rganasiz.

Har bir asar qarshingizda yangi bilimlar va unutilmas taassurotlar eshigini ochadi. Mutolaa sizning o‘qishdagi yaqin hamrohingiz. U tasavvuringizni boyitadi, xotirangizni charxlaydi, nutqingizni rivojlantiradi, sizni yanada zukko va dono bo‘lishga undaydi. Darslikdagi qiziqarli topshiriqlarni bajarish orqali o‘z bilimingiz va ijodiy qobiliyatingizni sinab ko‘rishingiz mumkin. Sizga kitob sahifalari bo‘ylab maroqli va sehrli sayohat tilaymiz!



Mustaqillik kuni

Har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun 1-sentabr – ulug‘ va unutilmas sana. Bu kun Mustaqillik e’lon qilingan, xalqimiz o‘z ozodligiga erishib, o‘z taqdirini o‘zi belgilashdek buyuk huquq va imkoniyatga ega bo‘lgan tarixiy lahzani yodga soladi.

1991-yil 31-avgustda suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi tashkil topgani tantanali ravishda e’lon qilindi. 1-sentabr esa bayram – O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni etib belgilandi. Mamlakatimiz xalq manfaatlarini ko‘zlab o‘z qonunlarini qabul qilgan holda mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tdi. Bu kunda butun yurtimiz bo‘ylab bayramona kayfiyat hukm suradi, xiyobonlar va maydonlarda konsert dasturlari, xalq sayillari tashkil etiladi. Xalqimiz bayramni Vatanga bo‘lgan cheksiz g‘urur va iftixorni his qilgan holda keng nishonlaydi.

Mustaqillik mamlakatimizni iqtisodiy, madaniy, ilmiy, tibbiy rivojlantirish hamda milliy urf-odat va an’analarimizni mustahkamlash imkonini berdi. O‘zbekiston hukumati har bir fuqaroga, insonlar hayoti yanada farovon bo‘lishi yo‘lida g‘amxo‘rlik ko‘rsatmoqda.

Mustaqillik xalqimizga boy tarixiy merosini anglash, urf-odatlari, tili va ma’naviyatini qayta tiklash hamda porloq kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlash imkonini berdi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshqa davlatlar bilan tinchlik va totuvlikda mamlakatimizni rivojlantirish yo‘lida tinimsiz harakat qilmoqda. Prezidentimiz rahbarligida yurtimizning har bir fuqarosi munosib hayot kechiradigan, yoshlar esa sifatli ta’lim va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘ladigan qudratli hamda kelajagi porloq davlat barpo etilmoqda.

Bugun sening bayraming,
Aziz yurtim – O‘zbekiston!
Barchamizga baxsh etding
Ulug‘ quvonch, shodlik, shon.

Hilpirayver bayrog‘im

Bayrog‘imiz to‘rt rangda:
Qizil, yashil, moviy, oq.
Menga oq rangi yoqar,
Hammasidan ham ko‘proq.
Oq rang insonlarga xos,
Odil, soflik belgisi.
Yashil rangi Vatanning
Qir-adirlar ko‘zgusi.



Qizil rangi ham inson
Tomirida oqqan qon.
Moviy rang o‘lkadagi
Ko‘m-ko‘k musaffo osmon.
O‘n ikki yulduz asli
Viloyatlar ramzidir.
Bu bayroq Vatanimiz
Chiroyidir, faxridir.



1. She’rda nima haqida so‘z boradi?
2. Siz uchun Vatan nimani anglatadi?
3. She’rda bayroqning qaysi ranglari tilga olingan?
4. Moviy rang nimaning ramzi hisoblanadi?
5. Oq rang – odil, soflik belgisi, degan iborani qanday tushunasiz?
6. Qizil rang haqida nima deyilgan?
7. Bayroqda nima uchun o‘n ikkita yulduz bor?
8. Nima uchun bayroq Vatanimiz chiroyi, faxri, deya aytilyapti?
9. Yurtimizga bo‘lgan muhabbatingizni hozir qanday namoyon eta olasiz?



Mustaqillik kuni haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.



She’rni ifodali o‘qishga tayyorlaning.



Mening yurtim

Osiyo Usmanova

Men O‘zbekistonda yashayman. Bugun mamlakatimiz ishonch bilan rivojlanib, olg‘a intilmoqda. Zamonaviy maktablar qurilmoqda, yangi korxonalar ochilmoqda, ilmiy markazlar hamda texnoparklar barpo etilmoqda. Bularning barchasi ta’lim, fan va iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Biroq O‘zbekistonning eng asosiy boyligi o‘z mehnati, bilimi va iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shayotgan yoshlardir.

Bizga mehribon hamda dono o‘qituvchilar saboq berib, yangi bilimlar olish, do‘stlashish, orzu qilish va o‘z maqsadlarimizga erishishimizga ko‘maklashadilar.

Salomatligimizni asrash va mustahkamlash yo‘lida jonkuyar shifokorlar doimo xizmatda bo‘ladilar. Ular har kuni bemorlarga yordam qo‘lini cho‘zib, murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajaradilar va insonlarning umrini saqlab qolishdek ezgu ishga o‘z hayotlarini bag‘ishlaydilar.

Sportchilarimiz xalqaro musobaqalar, jahon chempionatlari hamda Olimpiya o‘yinlarida medallarni qo‘lga kiritib kelmoqdalar.



O‘zbekistonni nafaqat kattalar, balki bolalar ham dunyoga tanitishmoqda. Mamlakatimiz dovrug‘ini ayniqsa iqtidorli yosh shaxmatchilarimiz taratib, eng kuchli raqiblarni mag‘lub etmoqdalar. Ular tinimsiz mehnat, bilim va matonat yuksak marralarga erishishga yordam berishini butun dunyoga yaqqol ko‘rsatib qo‘ymoqdalar. Shuningdek, yurtimizning yosh olimlari, muhandislari, dasturchilari va ixtirochilari ham O‘zbekiston nomini olamga taratishda faol ishtirok etmoqdalar. Ular zamonaviy texnologiyalar, kelajakka xizmat qiladigan buyuk loyihalar ustida muvaffaqiyatli mehnat qilmoqdalar.

Mamlakatimizda baxtiyor bolalar juda ko‘p. Ular ta’lim olish bilan bir qatorda sport bilan shug‘ullanishadi, rasm chizishadi, qo‘shiq kuylashadi, tanlov hamda festivallarda ishtirok etishadi. O‘z kelajagini o‘ylagan har bir bola hozirdanoq orzulari sari dastlabki qadamlarini tashlamoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti ta’lim, fan va sportni rivojlantirish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratmoqda. Bolalar uchun yangi maktablar, sport majmualari, kutubxonalar hamda ijod markazlari barpo etilmoqda.

O‘zbekiston tobora go‘zallashib, zamonaviylashib bormoqda. Zamon o‘zgarsa-da, insonlar orasidagi mehr-oqibat, kattalarga bo‘lgan hurmat hamda Vatanga bo‘lgan muhabbat saqlanib qolmoqda.



Mendan O‘zbekiston qayer deb so‘rashsa, shunday deb javob beraman:

– U – an’analar asrab-avaylanadigan va kelajakka ishonch bilan boqiladigan yurt, imkoniyatlar, do‘stlik va yuksak umidlar diyori. Bu – mening Vatanim!



1. Nima uchun muallif yoshlarni O‘zbekistonning eng asosiy boyligi deb hisoblaydi?
2. Maktablar, korxonalar, ilmiy markazlar va texnoparklarning rivojlanishi mamlakat kelajagiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. O‘qituvchilar bolalar hayotida qanday o‘rin tutadi?
4. Shifokorlarning mehnati jamiyat uchun qanday ahamiyatga ega?
5. O‘zbekistonlik sportchilar va shaxmatchilar o‘z Vatanlarini qanday yutuqlar bilan dunyoga tanitishmoqda?
6. Nima uchun olimlar, muhandislar, dasturchilar va ixtirochilarni kelajak bunyodkorlari deb atashadi?
7. O‘zbekistonda bolalar va yoshlar rivojlanishi uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?
8. Zamon o‘zgarsa-da, O‘zbekiston xalqining qaysi fazilatlari o‘zgarmasdan qolmoqda?
9. Nima uchun muallif O‘zbekistonni “imkoniyatlar, do‘stlik va yuksak umidlar diyori” deb ataydi?

Matnni o‘qing va mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.


Jonajon O‘zbekiston

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rtasida, yirik Amudaryo va Sirdaryo daryolari oralig‘ida joylashgan. Ushbu hududda o‘rnashgan xalqlarning tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Bu zamin, tarixchilar ta’biri bilan aytganda, Sharqdagi eng qadimiy tamaddunlardan* birining vatani hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixi – buyuk hukmdorlar, xalqlar, sarkardalar va olimlar tarixi. U, shuningdek, Markaziy Osiyoda qad rostlagan eng go‘zal shaharlar hamda o‘z Vatanini chin qalbdan sevgan insonlar tarixi hamdir.

Asrlar davomida Amudaryo va Sirdaryo vohalarida odamlar yashab, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi muhtasham shaharlarni barpo etishgan. Ular jangari qabilalar tomonidan ko‘p martalab vayron qilingan bo‘lsa-da, mehnatkash insonlar ularni qayta tiklab, yanada go‘zalroq ko‘rinishga keltirishgan.

Bu zamin Osiyo va Yevropani bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasi bo‘lgan. Bu yerning bozorlarida hunarmandlar mehnat qilishgan, ular yaratgan noyob san’at durdonalari Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropa hamda Osiyoning eng olis go‘shalarigacha yetib borgan.



Vatanimizning boy tarixi ming yillar burungi davrlarga borib taqaladi. Arxeologlar* tomonidan qadimiy shaharlar xarobalari topilib, o‘rganilmoqda. Qazishmalar chog‘ida mehnat qurollari, idish-tovoqlar va taqinchoqlar topilmoqda.

Mustahkam va rivojlangan davlat barpo etish – O‘zbekiston hukumati va xalqi oldida turgan asosiy vazifa.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyot, sanoat, ta’lim va madaniyatni rivojlantirishda ulkan qadamlar tashlayotgan mamlakatga aylangan. Siz-chi, o‘z mamlakatingiz uchun nimalar qila olasiz?

tamaddun – rivojlangan jamiyat, moddiy va ma’naviy madaniyat
arxeolog – qadimiy manzilgohlarni qazish va o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi olim

1. Davlatimiz qayerda joylashgan?
2. Qadim zamonlardan beri bu yerda yashagan insonlar nimalar bilan shug‘ullanishgan?
3. Arxeolog kasbi nega kerak?
4. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, qanchalik o‘zgardi?

Matnni o‘qing va mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.



Quyoshi saxiy, odamlari mehrli yurt

Zamira Ibrohimova



Zamira Ibrohimova
1953

Zamira Ibrohimova – bolalar yozuvchisi, olima va tarjimon. 1953-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. U dastlab yozgan ertaklarini faqat farzandlariga aytib bergan. Ularning qiziqib eshitishganidan ta’sirlanib, ertak va hikoyalarini “G‘uncha”, “Gulxan” jurnallariga, “Tong yulduzi” gazetasiga yubora boshlagan. Birinchi hikoyasi jurnalda chiqqanida rosa xursand bo‘lgan. Endilikda uning “Uyqu nega xafa bo‘ldi?”, “Tish qurti haqida ertak”, “Gulbahorning do‘stlari”, “Onasini qidirgan jo‘ja”, “Hisobda adashgan bola”, “Ko‘chaning fayzi”, “Alisherning mitti mehmoni” kabi kitoblari yosh kitobxonlarning sevimli asarlariga aylandi.

Qadim zamonlarda bir musofir safarga chiqibdi. Uzoq yo‘l yurib, bepoyon dalalar, sersuv daryolar, baland tog‘lar bag‘rida joylashgan ajoyib bir yurtga kelibdi. Yurt osmoni musaffo, bog‘lari yam-yashil, mevalari asaldan-da shirin ekan. Dalalarda bug‘doylar tebranib, paxtazorlar oppoq momiqqa burkangan, ariqlarda zilol suvlar sho‘x jildirab oqar ekan.



Istarasi issiq, yuzidan nur yog‘ilgan odamlar esa eshikdan kelgan mehmonga: “Qadamingiz qutlug‘ bo‘lsin! Xush kelibsiz!” – deb dasturxon yozar ekan. Musofir bu o‘lkaga maftun bo‘libdi va qayerga borsa: “Quyoshi saxiy, odamlari mehrli yurt”, – deb ulug‘labdi. Bu go‘zal diyor O‘zbekiston ekan!

Darhaqiqat, yurtimiz quyoshi issiq, tabiati rang-barang, odamlari samimiy, oqibatli va mehnatsevar... Xalqimiz qadimdan halol mehnat bilan rizqini topgan. Dehqonchilik qilib paxta va bug‘doydan ulkan xirmon ko‘targan. Bog‘larida xushbo‘y olmalar, sersuv noklar, totli anjirlar, polizlarida shirali qovun-tarvuzlar pishgan.

Ajdodlarimiz temirchilik, to‘quvchilik, kulolchilik, kashtachilik, zargarlik, gilamchilik kabi hunarlar bilan shug‘ullanganlar, ularni taraqqiy ettirish uchun tinmay izlanganlar. Ipak ip tayyorlashni III asrdayoq o‘rganib, nafis matolar to‘qiganlar.

Ota-bobolarimiz bog‘ va dalalarga suv yetkazish uchun butun vujudlari bilan harakat qilganlar.



Suv bor joyda hayot bor. Suv bilan daraxt ko‘karadi, don pishadi, gul ochiladi. Suv – bebaho ne’mat, uni uvol qilish gunoh. Suv nafaqat odamlar, o‘simliklar va jonivorlarga, balki hayotimizning boshqa ko‘plab sohalariga ham juda kerak. Uyimizdagi chiroqning yonishi yoki muzlatkichning ishlashida ham suvning kuchi bor. Suvdan elektr quvvati olish uchun daryolarga yirik gidroelektrostansiyalar – GESlar quriladi. Suvning kuchli oqimi turbinalarni* aylantirib, elektr energiyasi hosil qiladi. Elektr toki uylarimizga yetgach, chiroqni yoqadi, xonadonimiz nurga to‘ladi. Elektr toki zavod, fabrikalarga yetib borib, stanok va mashinalarni harakatga keltiradi. Odamlar ular yordamida matolar to‘qishadi, televizor, telefon, avtomobillar ishlab chiqarishadi.

Bugungi kunda ham xalqimizning g‘ayrati va ezgu niyati bilan yurtimizda yangi shaharlar qad rostlamoqda, zamonaviy binolar osmonga bo‘y cho‘zmoqda, mahobatli ko‘priklar qurilmoqda. Ko‘chalarimiz kengayib, bog‘ va xiyobonlarimiz yanada fayzli bo‘lmoqda.



turbina – elektr energiyasi olish uchun moslama


1. Musofir kelib qolgan go‘zal va saxovatli yurt qaysi mamlakat edi?
2. Ajdodlarimiz qadimda qanday hunarmandchilik turlari bilan shug‘ullanganlar?
3. Suv kuchi orqali elektr energiyasi qanday hosil qilinadi?
4. Ota-bobolarimiz bog‘ va dalalarga suv yetkazib berish uchun qanday mehnat qilganlar?
5. Hozirgi paytda mamlakatimiz qiyofasi qanday o‘zgarmoqda?



22-mart butun dunyoda Suv resurslari kuni sifatida nishonlanadi.

Suv – sayyoramizdagi eng aziz ne’mat. Usiz Yerda hayot yo‘q.

Suv sir-sinoatga boy. U uch xil holatda bo‘lishi mumkin. +100 °C da qaynaydi, 0 °C da esa muzlaydi.



Og‘zaki taqdimot tayyorlang.
Ipak ishlab chiqarish haqida ma’lumot toping.

Matn mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

Yurt mehri

Rauf Tolib



Rauf Tolib
1946–2009

Rauf Tolib – o‘z ijodini bolalarga bag‘ishlagan shoir va yozuvchi. U 1946-yilda Toshkentda tug‘ilgan. “Gulxan” va “G‘uncha” jurnallaridagi faoliyati davomida muallif o‘sib kelayotgan avlod muammolarini yoritib bergan ko‘plab asarlar yozgan. Uning hikoyalari, ertaklari va she’rlari jajji kitobxonlar tomonidan samimiy kutib olingan.

Dengiz osha uchar qush,
Ufqlarni quchar qush.
Shoshib, oshiqib hamon,
Uchadi yurti tomon.
Bunday olis, uzoqqa
Qushcha dengiz oshmoqqa,
Uni majbur etgan kim?
Uchadi bilmay qo‘nim.
Kun bo‘yi charchab quyosh,
Yotog‘iga qo‘ydi bosh.
Atrofga cho‘kdi oqshom,
Qushcha olmasmi orom?
Axir charchab qolmasmi?
Qanotlari tolmasmi?

Mizg‘ib uxlab olmasmi?
Yoki joni olmosmi?
Olarkin qayerdan kuch?
Har on xavfga kelar duch.
Bo‘lsa-da, ulkan, cheksiz,
Qushga pisandmas dengiz.
Ona yer mehri zo‘r kuch,
Undan uzilolmas hech.
Sabotdir sabotiga,
Madordir qanotiga.
Qalbiga sevinch bergan,
Olam-olam kuch bergan.
Sog‘intirgan el mehri,
Yurtin joziba, sehri.
Ufqlarning betida,
Dengizlarning chetida,
Ko‘ziga yonib shu choq,
Ko‘rinar ona tuproq.



1. Qush nimaning ustidan uchib o‘tmoqda?
2. U qayerga qarab intilmoqda?
3. “Kun bo‘yi charchab quyosh, yotog‘iga qo‘ydi bosh” satrlarini qanday tushunasiz?
4. Nega qushchaning joni olmosga tenglashtirilgan?
5. Qush barcha to‘siqlarga qaramay, nima uchun Vataniga shoshmoqda?
6. U kuchni qayerdan olmoqda?

She’rni yod oling.

Mening Vatanim

Zamira Ibrohimova

Gohida o‘ylanib qolaman: Vatan nima degani? Nega biz “Ona Vatanim”, “Ota yurtim”, “Mening Vatanim”, deya faxr bilan aytamiz? Ustozimiz aytganidek, har bir insonning tug‘ilib o‘sgan joyi uning ona Vatani hisoblanadi. Menimcha, bu juda to‘g‘ri. Har bir odamning bitta onasi bo‘ladi. Vatan ham ona kabi yagona bo‘ladi. Uni sevamiz, ardoqlaymiz, uzoqda bo‘lganimizda sog‘inamiz.

Men ham ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan shu muqaddas yurt bilan faxrlanaman. Bu – Ota yurtim! Ona Vatanim! O‘zbekistonim! Men yurtimizning musaffo osmonini, iliq quyoshini, fayzli* mahallalarini yaxshi ko‘raman. Ariq bo‘yida o‘tirib suvning jildirab oqishini, qushlarning quvnoq ovozini tinglayman, rango-rang kapalaklarning uchib-qo‘nishini tomosha qilaman.

Odamlarimizning mehribonligi, ayniqsa, mehmondo‘stligi menga juda yoqadi. Uyimizga mehmon kelsa, quvonamiz. Dasturxon yozib, tansiq taomlarni baham ko‘ramiz. Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g‘amxo‘r bo‘lishni ota-onamizdan o‘rganamiz.



Vatanimiz tarixi bilan g‘ururlanaman. Buyuk allomalarimiz Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylar jahon ilm-fani, adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ularni yaqindan taniganim sayin shunday buyuk insonlar yashagan yurtda tug‘ilganimdan quvonaman.

Har bir odam tug‘ilib o‘sgan Vatanidagina yayraydi. Zero, o‘z uyimda, yonimda ota-onam, buvim, bobom, aka-opalarim bor. Ularga bemalol erkalanaman, ulardan maslahatlar olaman. Qo‘shnilarimiz qarindoshdek qadrli. Maktabim, do‘stlarim barchasi menga aziz, qadrdon. Shuning uchun: “Ona Vatanimni juda yaxshi ko‘raman! Ota yurtim bilan g‘ururlanaman!” – deb baralla ayta olaman.

Vatanim ravnaqiga* hissa qo‘shish uchun sog‘lom hayot tarziga rioya etish, ko‘proq kitob o‘qib, fan cho‘qqilarini egallash, hunar o‘rganish va yaxshi inson bo‘lishga intilaman.



fayzli – ko‘rkam, yoqimli; jozibador
ravnaq – rivoj, gullab-yashnash

1. Matnga ko‘ra, nima uchun Vatan xuddi onaga o‘xshatiladi?
2. Matnda o‘zbek xalqining qanday milliy qadriyatlari va fazilatlari haqida so‘z yuritilgan?
3. Inson nima uchun faqat o‘z tug‘ilib o‘sgan Vatanidagina erkin va baxtiyor yayray oladi?

Matndan mashhur insonlarning ismlarini toping. Ulardan biri haqida taqdimot tayyorlang. Matnning mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri haqida

Internet manbalaridan olindi

Toshkent markazidagi Zarafshon ko‘chasida muhtasham bino – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri qad rostlab turibdi. Ilgarilari teatr hududida chorshanba va shanba kunlari savdo-sotiq tashkil etilgan. Bu yerga minglab shahar aholisi ro‘zg‘orga oziq-ovqat sotib olish uchun kelib turishgan. Keyinchalik, aynan shu yerda teatr binosini qurishga qaror qilingan.

1933-yilda Toshkentda opera teatri uchun eng yaxshi loyiha tanlovi e’lon qilingan. 1934-yilda tanlov natijalariga ko‘ra, akademik Aleksey Viktorovich Shusevning loyihasi eng muvaffaqiyatli deb topilgan.

Teatr qurilishi 1940-yilda boshlangan. Ammo Ikkinchi jahon urushi tufayli 1942-yilda uning qurilishi to‘xtatiladi, 1943-yilda esa yana davom ettiriladi. Shu tariqa yetti yil davomida me’mor Shusev qurilishga rahbarlik qiladi. U qadimiy Sharq me’morchiligini juda yaxshi bilgani bois binoning milliy xususiyatlarini yanada yorqinroq aks ettirish yo‘llarini izlaydi va bunga erishadi ham. Uning loyihasi asosida teatr atrofidagi maydon ko‘kalamzor bog‘, manzarali daraxtlar va paxta ko‘sagi shaklidagi favvorali hovuz bilan bezatiladi.

Bugungi kunda ushbu teatr O‘zbekistonning eng buyuk madaniy boyliklaridan biridir. Uning sahnasida mamlakatimiz va xorijning taniqli artistlari, xonandalari hamda ijodiy jamoalari o‘z san’at asarlarini namoyish etib kelmoqdalar.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining truppasi* dunyoning turli mamlakatlariga uyushtirilgan gastrollarda* muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining qurilishida turli kasb egalari: kulollar, yog‘och o‘ymakorlari, g‘isht teruvchilar va ganchkorlar* ishtirok etishgan. Teatrni pardozlash ishlarida ganch* o‘ymakorligi usulidan foydalanilgan. Sharq me’morchiligining yuksak namunasi bo‘lgan ushbu shoh asarni mashhur naqqosh-rassom va ganchkor Usta Shirin Murodov yaratgan.



truppa – muayyan teatr yoki sirkda faoliyat yurituvchi aktyorlar, xonandalar, musiqachilar jamoasi
gastrol – teatr artistlarining boshqa shahardagi konserti
ganch – suvoqchilik va haykaltaroshlikda ishlatiladigan gips va loy aralashmasidan iborat material
ganchkor – ganch o‘ymakori, ustasi

1. Avvallari teatr o‘rni qanday ko‘rinishda bo‘lgan va aholi u yerga nima uchun kelgan?
2. Teatr qurilishi tanlovida kimning loyihasi g‘olib deb topildi va qurilish nechanchi yili boshlandi?
3. Me’mor Shusev teatr atrofidagi maydonni bezatishda qanday elementlardan foydalangan?
4. Urush sababli to‘xtab qolgan teatr qurilishi qachon qayta boshlandi va qancha davom etdi?

Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

Ko‘hna Ko‘kaldosh madrasasi haqida

Internet manbalaridan olindi


Sayyohlar Toshkentga nafaqat zamonaviy binolar, maydonlar, bog‘u-rog‘ va xiyobonlarni, balki qadimiy Sharq san’ati namunalarini ham tomosha qilish uchun kelishadi. Ular ko‘pincha Chorsu maydonida joylashgan katta bozor tomon shoshilishadi. Deyarli har kuni bir necha o‘n minglab shahar aholisi tashrif buyuradigan bu bozor bo‘ylab sayr qilish, bozordan turli mahsulotlar xarid qilish, shuningdek, u yerda saqlanib qolgan o‘rta asr me’morchilik obidalaridan biri – Ko‘kaldosh madrasasini tomosha qilish ular uchun juda qiziqarli.

Darvoqe, Ko‘kaldosh madrasasi XVI asrda – Toshkentda Derveshxon hukmronlik qilgan davrda qurilgan. Qurilishga “Ko‘kaldosh” laqabli vazir rahbarlik qilgan. Ushbu ko‘hna madrasa bilan bog‘liq ko‘plab afsona va hikoyalar mavjud. Ulardan biri g‘ayrioddiy pista daraxti haqidagi hikoyadir. U madrasaning g‘ishtli gumbazlaridan birining tepasida uch yuz yildan ortiq vaqt davomida o‘sib turgan. Daraxt muqaddas hisoblanib, u haqida ko‘plab afsona va qo‘shiqlar to‘qilgan.

Ko‘p asrlar davomida Ko‘kaldosh madrasasining binosida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Zilzilalar oqibatida unga bir necha bor katta talofot yetgan, shu sababli uch qavatdan faqat ikkitasi saqlanib qolgan.

1977-yilda ushbu me’moriy obidani har tomonlama qayta ta’mirlash boshlangan. Mustaqillik yillarida esa barcha ta’mirlash-tiklash ishlari yakunlangan.





Ko‘kaldosh madrasasi – yirik madrasa. IX va X asrlarda aynan shu yerda Toshkentning uchta shahar darvozasidan biri – Kesh darvozasi joylashgan bo‘lgan.

1. Matnda qaysi me’moriy obida haqida hikoya qilinmoqda?
2. Ko‘kaldosh madrasasi qayerda joylashgan?
3. Ushbu inshoot qaysi asrda qurilgan?
4. Ko‘kaldosh madrasasi qurilishiga kim rahbarlik qilgan?
5. Nima uchun Ko‘kaldosh madrasasi Toshkentning eng ko‘hna obidalaridan biri hisoblanadi?
6. Madrasa gumbazidagi g‘ayrioddiy pista daraxtiga qanday munosabatda bo‘lingan?
7. Bino o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida qanday sinovlarni boshidan kechirgan?
8. Nima uchun tarixiy obidalarni asrash kerak?

Hududingizda qanday qadimiy me’morchilik obidalari joylashgani haqida gapirib bering.

Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

9-dars. *1-nazorat ishi*

Oltin kuz

Zulfiya



Zulfiya
1915–1996

Zulfiya – O‘zbekiston xalq shoirasi. U 1915-yil 1-martda Toshkentda tug‘ilgan. Onasi ko‘plab xalq qo‘shiq va afsonalarini bilar va ularni farzandlariga aytib berar edi. Bu Zulfiyada so‘zga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otdi va tarbiyaladi.

Yosh shoiraning birinchi she’rlar to‘plami u bor-yo‘g‘i 17 yoshda bo‘lganida nashr etilgan. U o‘z she’rlarida do‘stlikni hamda inson qalbi go‘zalligini kuylagan.

1999-yilda O‘zbekistonda adabiyot, san’at, fan, madaniyat va ta’lim sohasidagi yutuqlari uchun iqtidorli yosh qizlarga beriladigan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi.

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go‘zal chog‘ingni.
Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun*,
Ko‘zni erkalagan chaman bog‘ingni.

Sevaman, yerlarga rangdor yaproqlar
Yumshoq va rang-barang gilam to‘shasa.
Gul terganday terib barg qizaloqlar,
Qushlarday gurpanglab* yayrab o‘ynasa...

Bulut chodirini yirtib, mo‘ralab,
Chiqsa Quyosh ko‘kka*, bo‘laman maftun.
Sevaman nurlarda pati yaltirab,
Oppoq kabutarlar qilsalar o‘yin...

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog‘larni!
Yomg‘irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolga cho‘mganim go‘zal onlarni!



gulgun – qizg‘ish, pushti
gurpanglab – to‘da-to‘da bo‘lib
ko‘k – osmon

1. She’rda qaysi fasl haqida so‘z boradi?
2. Muallif kuzni qanday tasvirlaydi? U kuzga nisbatan qanday tuyg‘ularni his qiladi?
3. She’rda tabiatning qanday manzaralari tasvirlangan?
4. Kuzda barglar bilan nima sodir bo‘ladi?
5. Daraxtlar nimaga o‘xshatiladi? Nima uchun?
6. Matnda “rango-rang”, “rang-barang”, “rangdor” so‘zlari ishlatilgan. Bu kuzning qanday ranglari bo‘lishi mumkin?
7. She’rdan kuzning qanday belgilarini topish mumkin?
8. Kun davomida tabiat kayfiyati qanday o‘zgaradi?

She’rni yod oling.

Kuzning og‘ushida bu kun Vatanim

Amirqul Po‘lkan

Anagrammalarni yeching. Bu so‘zlarning umumiy jihati nimada?

TIBATA

G‘IYMOR

MOSHAL

QAYROP

Shamollar daraxtning bargini uzar,
Shamollar qamchilab junjitar tanim.
Sarg‘aygan bog‘larda oltin kuz kezar,
Kuzning og‘ushida bu kun Vatanim.

Daraxtlar libosin yecharkan asta,
Bo‘y cho‘zib qolishar ufqqa boqib.
Quyosh inib* ketar ufqdan pastga,
Yulduzlar termilar chirog‘in yoqib.

Yaproqlar shiviri yo‘q endi bunda,
So‘ppayib turibdi yalang‘och tana.
Daraxtlar mudrashar yulduzli tunda,
Tabiat bizlarni siylar deb yana.

Paymoni to‘lgan* chog‘ kuz ham ketadir,
Mangu yaralmagan faslning bari.
So‘ngra qish bog‘larga tashrif etadir,
Shamshiri qayralgan botir singari.

inmoq – yuqoridan pastga tushmoq
paymoni to‘lmoq – kuni bitmoq

1. She’rning birinchi to‘rtligida kuz faslining kirib kelishi va ob-havoning o‘zgarishi qanday tasvirlangan?
2. “Daraxtlar libosin yecharkan asta” va “yalang‘och tana” iboralari orqali muallif nimani nazarda tutmoqda?
3. Tungi manzara, quyoshning botishi va yulduzlar tushunchasi she’rda qaysi misralarda aks etgan?
4. Shoir qish faslining kirib kelishini va uning shiddatini qanday o‘xshatish orqali bergan?
5. “Paymoni to‘lmoq” iborasi she’rda qanday ma’noda qo‘llangan?
6. She’rdagi epitetlarni toping.

Epitet – narsalarni ko‘chma ma’noda tasvirlash uchun ularga qo‘shib ishlatiladigan sifatlovchi so‘z.
Masalan: ***oltin qo‘llar, kumush qish.***

She’rni yod oling.

Kuzning so‘nggi kunlari

Ro‘zimurod Bolqiyev



Ro‘zimurod Bolqiyev
1971

Ro‘zimurod Bolqiyev 1971-yilda Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanida tug‘ilgan. She’rlari “G‘uncha”, “Gulxan”, “Tong yulduzi” jurnallarida, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Boshlang‘ich ta’lim”, “Ma’rifat” kabi gazetalarda e’lon qilingan. Muallifning to‘rt qismdan iborat “Zukkolarga eslatma”, “Har nening o‘z tili bor” she’riy to‘plamlari nashr qilingan. Ayni paytda Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlab kelmoqda.

Ko‘rinmaydi qaldirg‘och-u
Baland uchgan turnalar.
Chunki havo soviydi-yu
Kundan kunga turlanar.

Bilamizki, yo‘lda ular,
Uchmoqda janub tomon.
Betalofat yetib olsin,
Barchasi eson-omon.



Ko‘rinadi ko‘kda ba’zan,
Zog‘chalarning galasi.
Ularga hayot berar,
Dehqonlarning dalasi.

Shamol tunda uvullab,
Derazani chertadi.
To‘kilgan barglarni
Bilmam qayga eltadi.

Quruq sovuq, kuchli shamol,
Qordan esa yo‘q nishon.
Qor yog‘gani yaxshi edi,
Quvonardim-a, ishon.

Tabiiy hodisalar
Mo‘jiza bilsang asli.
Kuz o‘rnini egallar
Tezda go‘zal qish fasli.


1. Qaldirg‘och va turnalarning ko‘rinmay qolishiga sabab nima?
2. Shoir janub tomonga yo‘l olgan qushlarga qanday ezgu tilak bildiradi?
3. Osmonda qaysi qushlar ko‘rinadi va ular qayerda oziqlanadi?
4. Tunda nima sodir bo‘ladi?
5. Shoir qanday ob-havo bo‘lishini xohlaydi va bu unga qanday kayfiyat bag‘ishlaydi?
6. Muallif tabiiy hodisalarni nima deb ataydi?
7. She’rda tasvirlangan kuz fasli qanday: quvonchlimi yoki g‘amgin?

She’rni ifodali o‘qishga tayyorlaning.



Yomg‘irning sayohati

Barnoxon Rajabova



Barnoxon Rajabova
2002

Barnoxon Rajabova 2002-yil Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida tahsil olgan. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetining magistratura bosqichini tamomlagan.

Yosh ijodkorning bolalarga atalgan “Oyijonim kulgusi”, “Daraxt qo‘shig‘i”, “Xo‘rozqand”, “Muzqaymoqning uyi”, “Qizil sandiq”, “Quyosh qalbi” kabi to‘plamlari nashr etilgan.

Bir shoir yozgan ekan:

– *Nega yomg‘ir yog‘adi?*

– *Tog‘ bulutni sog‘adi.*

Bu – yumor – hazil gap, aslida.

Men dengizlar, ko‘llar va daryolardan bug‘langan suvdan hosil bo‘laman. Suv bug‘lari osmonga ko‘tarilib, bulutlarga aylanadi. Bulutlar ichidagi suv zarralari bir-biriga qo‘shilib kattalashgach, men yerga yomg‘ir bo‘lib tushaman. Bu jarayon tabiatda suv aylanishi deb ataladi.




Bir bolakay men haqimda shunday savol bergan:

Nega tushmas osmondan
Quygan kabi chelakdan?
Tushar xuddi o‘tganday
G‘alvir yoki elakdan?

Bu topishmoq-she’rda tabiatning buyuk hikmati yashiringan. Mening aynan mayda tomchilar bo‘lib yog‘ishimda ulkan ma’no bor. Agar men chelakdan quyilgandek yerga qattiq tushganimda edi, tuproqni yuvib ketib, ekinlarni nobud qilgan bo‘lardim. Mayda tomchilarim esa tuproqni yumshoq namlaydi va tabiatni jonlantiradi: daraxtlar yashnaydi, gullar ochiladi, o‘simliklar unib-o‘sadi. Olimlarning fikricha, men Yer yuzida hayot davom etishini ta’minlovchi eng muhim tabiiy manbalardan biridirman.

Ba’zan sekin-sekin yog‘aman. Odamlar mening mayin shitirlashimni tinglab, hordiq chiqaradilar. Ba’zan esa kuchli yog‘ib, momaqaldiroq va chaqmoqlar bilan birga kelaman. Bu tabiat o‘z qudratini namoyon etadigan hodisalardandir. Men yog‘ganimdan so‘ng havodagi changlar yuvilib, atmosfera tozalanadi. Shuningdek, quyosh nurlari tomchilarim orqali o‘tganda, osmonda rang-barang kamalak paydo bo‘ladi. Kamalak yetti xil rangdan tashkil topgan bo‘lib, yorug‘likning sinishi natijasida hosil bo‘ladi.

Mening sayohatim hech qachon tugamaydi. Yerga tushgan tomchilarim tuproqqa singadi, daryolarga qo‘shiladi, yana bug‘lanib, osmonga qaytadi. Shu tariqa men tabiatning uzluksiz aylanishida ishtirok etaman.



Kecha bir bolakayning men haqimda she’r aytayotganini eshitib qoldim:

Osmon gumbur etadi,
Quyosh qayga ketadi?
Shunda ishchan yomg‘irvoy
Ishga tushib ketadi.
Tozalar u har yoqni,
Yuvadi gul-yaproqni.

1. Hikoyada “Nega yomg‘ir yog‘adi?” degan savolga “Tog‘ bulutni sog‘adi” deb hazil javob berilgan. Siz buni qanday tushunasiz?
2. Yomg‘ir o‘zining paydo bo‘lish jarayonini va tabiatdagi suv aylanishini qanday tushuntiradi?
3. Yomg‘ir yerga tushganda tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
4. Yomg‘irning mayin yoki kuchli yog‘ishi insonlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Yomg‘irdan keyin kamalak qanday va necha xil rangda paydo bo‘ladi?
6. Yomg‘irning sayohati hech qachon tugamasligini qanday izohlaysiz?

Antonio Vivaldining “Yil fasllari. Kuz” kompozitsiyasini tinglang va savollarga javob bering.

1

1. Kompozitor kuzgi kayfiyatni qanday yetkazib bergan?
2. Asarni tinglayotganingizda ko‘z oldingizga nimalar keldi?

Hikoya mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.

Kuz manzaralari

Habib Rahmat



Habib Rahmat
1941 – 2025

Habib Rahmat taniqli bolalar shoiri. U 1941-yil 21-yanvarda Toshkentda tug‘ilgan. Maktabni tamomlagach, qurilishda ishchi sifatida mehnat faoliyatini boshlagan. 1962-yilda kutubxonachilik ishi bilan shug‘ullangan. Keyinchalik “Gulxan” jurnalida faoliyat yuritgan. Uning ilk she’ri 1958-yilda “G‘uncha” jurnalida chop etilgan. Ijodkorning she’rlari bolalar tomonidan sevib o‘qiladi.

Saratonning* tafti* yo‘q,
Quyosh boqar olisdan.
Ajib bir is taralar
Hov, qirdagi polizdan.

Daraxt bargi tillarang,
Mevalardan tomar bol.
Dalalarga bir qarang,
Oq gullardan chamanzor.

Sunbulaning* suvlari
Shishadan ham tiniqroq.
Uchib borar turnalar,
Ko‘kda solib arg‘imchoq.





Yig‘im-terim avjida,
Bir dam qolmas to‘xtalib.
Hademay qish yo‘rg‘alar*
Oq ko‘rpasin ko‘tarib.

Yomg‘ir yog‘ar...

Yomg‘ir yog‘ar shitir-shitir,
Nedir so‘zlab shivir-shivir.
O‘yinqaroq qushlar jimdir,
Yomg‘ir yog‘ar.

Osmon – borliq sokin turar,
Dov-daraxtlar xayol surar,
Xayol surar, ham cho‘milar,
Yomg‘ir yog‘ar.

Bu dam atrof nimrang tusda,
Zavq beradi ko‘rgan ko‘zga.
Ajib fayz bor dala-tuzda*,
Yomg‘ir yog‘ar.

Bu yomg‘irim yerga sutdir,
Har tomchisi boylik – qutdir*.
To‘ysa dalam, hosil butdir,
Yomg‘ir yog‘ar...

saraton – 22-iyundan 21-iyulgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan oy nomi
taft – issiqlik, harorat
sunbula – 22-avgustdan 21-sentabrgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan oy nomi
yo‘rg‘alamoq – mayda qadam bilan yurmoq
dala-tuz – ekin ekilmagan sayhon, bo‘z yerlar
qut – boylik, rizq

1. Kuz issig‘i birinchi she’rda qanday tasvirlangan?
2. “Oq gullardan chamanzor” deb qaysi ekin nazarda tutilmoqda?
3. Sunbula oyidagi suvlar nimaga o‘xshatilgan, turnalarning uchishi qanday tasvirlangan?
4. Qishning yaqinlashishi qanday ifodalangan?
5. Yomg‘ir yog‘ayotganda tabiat va dov-daraxtlar holati ikkinchi she’rda qanday aks ettirilgan?
6. Nega yomg‘ir yerga sut, boylik deyilyapti?
7. Yomg‘ir hosilga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
8. Har ikkala she’rda kuz faslining qanday umumiy belgilari va go‘zalliklari tasvirlangan?

Uchta savol tuzing va partadoshingizdan bu savollarga javob berishini so‘rang.

She’rlarni ifodali o‘qishga tayyorlaning.
Ularga atab suratlar chizing.

Daraxtlarda lovullar gulxan

Xurshid Davron




Xurshid Davron
1952

Xurshid Davron – iste’dodli shoir. U 1952-yilning 20-yanvarida Samarqand viloyatida tug‘ilgan. 1969-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti)ning jurnalistika fakulteti kechki bo‘limiga o‘qishga kirib, kunduzi qurilish tashkilotlarida ishlagan.

Xurshid Davronning “Qadrdon quyosh” nomli birinchi kitobi 1979-yilda chop etilgan. Shundan so‘ng shoirning “Shahardagi olma daraxti”, “Tungi bog‘lar”, “Uchib boraman qushlar bilan”, “To‘marisning qizlari”, “Bolalikning ovozi”, “Qaqnus”, “Bahordan bir kun oldin”, “Bobur shoh”, “Temurnoma”, singari she’riy kitoblari dunyoga kelgan.

Ko‘z o‘ngimda bepoyon bog‘lar,
Yaproqlarda tillarang g‘ubor.
Yaqinlashib qolgandek tog‘lar,
Havo shunday tiniq, beg‘ubor.

Shitirlagan kechki yomg‘ir, ham
Tumanlarni quchoqlagan tong,
Qop-qoraygan dala-yu qir ham,
Bari menga tanish, qadrdon.



Daraxtlarda lovullar gulxan,
Yuragimda uning tafti bor.
Bog‘chadagi xazonlar bilan
Uchib yurar kechagi bahor.

Meni tashlab ketmoqchi do‘stni
To‘xtatmoqchi bo‘lganday, shu on
Men jimgina qo‘lim cho‘zaman
Yonayotgan gulxanlar tomon.

1. She’rda yilning qaysi fasli tasvirlangan? Buni qaysi so‘zlar orqali bilib olish mumkin?
2. Birinchi to‘rtlikda tabiatdagi o‘zgarishlar qanday tasvirlangan?
3. Shoirga tanish va qadrdon bo‘lgan tabiat manzaralari hamda hodisalari qaysilar?
4. “Daraxtlarda lovullar gulxan” misrasida nima nazarda tutilgan?
5. “Bog‘chadagi xazonlar bilan
Uchib yurar kechagi bahor” misralarini qanday tushunasiz?
6. Ketayotgan faslni to‘xtatib qolish uchun shoir qanday harakat qiladi?
7. She’r qanday kayfiyat uyg‘otadi?



Kuz qasidasi

Zahro Hasanova



Zahro Hasanova
1962

Zahro Hasanova 1962-yili Toshkent shahrining Labzak dahasida tug‘ilgan. 1979-yili maktabni tamomlagach, Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga qabul qilingan. Mehnat faoliyati davomida “Gulxan”, “Yosh kuch”, “Sinfdosh”, “Bekinmachoq”, “G‘uncha” kabi jurnallarda ishlagan. 2014-yildan buyon “Gulxan” jurnalining bosh muharriri. O‘tgan yillar mobaynida Zahro Hasanovaning bolalar uchun yozgan “Zukko Alifbo”, “Kutilmagan sovg‘a”, “Salom, maktab”, “Ko‘zmunchog‘im” kabi ko‘plab kitoblari nashr etilgan.

Dov-daraxtlar qizg‘ish tus oldi,
O‘tib borar sokin*, vazmin* kuz.
Tabiatning rangin* sehridan
Zavqlanaman, uzolmayin ko‘z.

Ortda qolgan jaziramadan
Toliqdimi* shu zamin, olam?
Kuz yomg‘iri ko‘ksingga singib,
Yengil nafas oldingmi, dalam?

Bag‘ringdagi mevalaringni
El-u yurtga ilindingmi, bog‘?
Ortiqcha shox-shabbalaringni
O‘choqboshga taxladilar, boq.

Hu, omborga to‘lgan don-dunlar
Xalqimizning rizq-nasibasi*.
Shamol bilan tillashgan osmon,
Kuylamoqda kuz qasidasin*.

Olovdayin ko‘ylaging bugun
Yarashibdi, qanotingni yoz.
Lek o‘ksinma, eshiging buzib
Kirib kelsa qahraton ayoz.

sokin – sukunatga cho‘mgan, jimjit
vazmin – og‘ir, bosiq, ohista
rangin – rang-barang, rangdor
toliqmoq – holdan toymoq
rizq-nasiba – boylik, baraka
qasida – ko‘tarinki ruhdagi tantanavor ohangli she’riy asar

1. She’rda kuz faslining kirib kelishi va tabiatdagi o‘zgarishlar qanday tasvirlangan?
2. Dala va bog‘larga qarata qanday savollar bilan murojaat qilingan?
3. “Olovdayin ko‘ylaging bugun yarashibdi” iborasini qanday tushunasiz?
4. She’r so‘ngida kuz fasliga qarata aytilgan so‘zlarni qanday tushunasiz?

She’rlardan birini yod oling.

16-dars. *2-nazorat ishi*

Ona tili – millatning qalbi

Ona tili – har birimiz uchun berilgan eng oliy ne’mat. Ona tilida biz ilk so‘zlarni aytamiz, fikrimizni bayon etamiz, tuyg‘ularimiz haqida kuylaymiz, quvonish, orzu qilish va atrofdagi olamni anglashni o‘rganamiz. Har bir insonning bilim, ta’lim-tarbiya olish sari bosgan har bir qadami aynan ona tilidan boshlanadi.

Til insonlarga muloqot qilish, urf-odatlarni asrab-avaylash hamda o‘z tajribalarini avloddan avlodga yetkazishga yordam beradi. Til tufayli biz o‘z xalqimiz tarixini bilib olamiz, turli fan sohalarini o‘zlashtiramiz va Vatanimizni sevishni o‘rganamiz. Tilda xalqning xotirasi yashaydi, uning donishmandligi, zakovati va ma’naviy boyligi saqlanadi. Ona tili jamiyat bilan hamohang tarzda rivojlanib, yozuvchilar, shoirlar va olimlarning mehnati evaziga boyib boradi.

O‘zbekistonda ta’lim yettita: o‘zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, turkman va qirg‘iz tillarida olib boriladi. Bu turli millat vakillariga bilim olish, o‘zaro do‘stlashish va qo‘shnilar madaniyatini hurmat qilishga yordam beradi. Mamlakatimizda barcha millat vakillari teng huquqli bo‘lib, ular o‘z ona tilida bilim olishi va rivojlanishi mumkin. Shuning uchun ham O‘zbekistonda xalqlar o‘rtasida do‘stlik va ahillik mustahkamlanib bormoqda.



O‘zbek tili va adabiyoti rivojiga buyuk ajdodlarimiz ulkan hissa qo‘shganlar. Buyuk shoir Alisher Navoiy ona tilimizni boyitib, uni yuksak she’riyat tiliga aylantirdi. Shoh, shoir va tarixchi Zahiriddin Muhammad Bobur madaniy hayotimiz va tariximiz haqida muhim ahamiyatga ega qimmatli asarlar yozib qoldirdi. Olim Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarning* lug‘aviy boyligini to‘plab, ularni puxta o‘rganib, kelajak avlodlar uchun qadimiy so‘z va iboralarni saqlab qoldi. Bu buyuk zotlar ona tilimizni saqlash va rivojlantirishga yordam berish barobarida, uning boyligi va ta’sirchanligini yanada oshirishga xizmat qilganlar.

Mashhur yozuvchi va shoirlar odamlarni ona tilini sevishga, so‘zni qadrlash va madaniyatni asrab-avaylashga ilhomlantirganlar*. Ularning mehnati tufayli til xalq ma’naviy hayotining poydevori va uning birligi ramziga aylandi. Ular qoldirgan meros bugungi kunda maktablarda faxr bilan o‘rganilib, yangi avlodga mamlakatimiz tarixidan saboq bermoqda.

Zamonaviy O‘zbekistonda ta’lim va tillarni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bolalar to‘g‘ri o‘qish, yozish, gapirishni, o‘z xalqining adabiyoti va madaniyatini o‘rganmoqdalar. Maktablarda kitobxonlik tanlovlari, adabiy kechalar va ona tiliga bag‘ishlangan bayramlar o‘tkazilmoqda. Yoshlarimiz fan, san’at va zamonaviy texnologiyalarda ona tilimizdan faol foydalanmoqdalar.



Ona tili xalqni birlashtirib, uni qudratli qiladi. Shu bilan birga, u bizni teran fikrlashga, nutqimizni oshirishga va o‘zaro hurmatni shakllantirishga o‘rgatadi. Shuning uchun har bir inson o‘z tilini asrab-avaylashi, uni sevishi va o‘rganishi kerak. Til shunchaki muloqot vositasi emas, balki millatning qalbi, uning tarixi va kelajagidir.

Til yashar ekan, millat ham yashaydi.



turkiy tillar – Osiyoda keng tarqalgan tillar oilasi, o‘zbek tili ham shu tillar oilasiga kiradi

ilhomlantirmoq – qiziqish va ishtiyoq uyg‘otmoq

1. Nima uchun ona tili millatning qalbi deb ataladi?
2. O‘zbekiston ta’lim tizimida qaysi tillardan foydalaniladi?
3. Til inson va jamiyat hayotida qanday o‘rin tutadi?
4. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Mahmud Koshg‘ariy til rivojiga qanday hissa qo‘shganlar?
5. Nima uchun ona tilini asrab-avaylash va o‘rganish muhim?

Matn mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.

Ona tilim

Orif To‘xtash

Iqtibosni o‘qing. Ma’nosini tushuntirib bering.

“Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Abdulla Avloniy

Men bulbulman – o‘z tilida sayrab turgan,
Men duldulman – o‘z yerida yayrab yurgan.
Menga kelsin, mening o‘zbek tilim uchun –
O‘zin dag‘al tillarini qayrab yurgan.

Qani aytsin, qaysi tildan kamdir tilim,
Mening uchun iftixor ham sha’ndir tilim.
Temuriyman – turkiylarning bosh bo‘g‘ini,
Senda olam fasohati jamdir tilim!



Sen o‘zingsan alla bilan dilga tushgan,
Va ilk bora “ona” deya tilga tushgan.
Koshg‘ariydan tortib barcha bobolarim –
Menga faqat til hikmatin o‘rgatishgan.

Shu til borki, shu el borki – men ham borman,
Tilin aziz bilganlarga do‘stman, yorman.
Qo‘lga qalam tutdim, demak ajdodlardan –
Avlodlarga so‘z tashuvchi dastyorman!

Madhing qilsam, ko‘ksim aro yonar dilim,
Kuylagayman, mayli toki qonar tilim.
Yashasam bas, sen-la seni senda kuylab,
Vatan tili, Otam tili, Ona tilim!

1. Nima uchun tilni “millatning ruhi” deyishadi?
2. Muallifning ona tiliga munosabati qanday?
3. She’rda qaysi buyuk siymolar tilga olingan?
4. Shoir kimlar bilan do‘st bo‘lishini ta’kidlaydi?
5. Til madaniyat va an’analarni saqlashga qanday yordam beradi?

“Ota”, “ona” so‘zlari deyarli barcha tillarda bir-biriga o‘xshash: ota – папа, падар, father...; ona – мама, модар, mother... . Olimlarning taxminiga ko‘ra, “pa” – “yer”, ya’ni mustahkam, barqaror narsa, “ma” esa oziq-ovqat bilan bog‘liq “iliq va mazali” degan ma’nolarni anglatadi. Biroq olimlar nima deyishmasin, onamizning iliq tabassumi va otamiz ko‘zlaridagi mehrdan bo‘lak hech narsa qalbimizni isitolmaydi.

She’rni ifodali o‘qishga tayyorlaning.

Noming qolsin dunyoda!

Xudoyberdi Komilov



Xudoyberdi Komilov
1956

Xudoyberdi Komilov 1956-yilda Samarqand viloyati, Urgut tumanida tug‘ilgan. Maktabni oltin medal bilan bitirgan. 1981-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutini tamomlagandan hozirgi paytgacha Urgut tumanidagi maktab va litseylarda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, bo‘lim mudiri, direktor vazifalarida ishlab kelgan. Uning “Kim qanday uxlaydi?”, “Sirli sovg‘alar”, “Mazali kitob”, “Kashfiyotchi chumoli”, “Topqir bolalar”, “Men bir so‘zli soatman”, “Samarqandga sayohat” kabi she’riy to‘plamlari chop etilgan. Xudoyberdi Komilov 2013-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

Ne bo‘lmaydi hayotda,
Taqdir ba’zan beshafqat.
Sinoviga sen chida,
Yo‘ling yo‘qotma faqat.





Izlagin o‘z-o‘zingni,
Olg‘a qadam bos mudom*.
Qoldir nurli izingni,
Qolsin sendan yaxshi nom.

Yo‘lni yorit chaqinday*,
Sabog‘ingni uqsinlar*.
Avlodlar sen haqingda
She’r-u doston bitsinlar.

mudom – doim, hamma vaqt, hamisha
chaqin – chaqmoq
uqmoq – bilib yetmoq; anglamoq, tushunmoq

1. She’rning birinchi bandida inson hayotiy qiyinchiliklarga duch kelganda qanday yo‘l tutishi kerakligi uqtirilgan?
2. “Beshafqat” so‘ziga qanday so‘zlar ma’nodosh bo‘la oladi?
3. Ikkinchi banddagi “nurli iz qoldirish” iborasini qanday tushunasiz?
4. “Yo‘lni yorit chaqinday” misrasini qanday tushunasiz?
5. Ushbu she’r sizga qanday taassurot qoldirdi?

She’rni yod oling.



Maymuncha haqida

Boris Jitkov

Sizningcha, yovvoyi hayvonni uyda parvarish qilish osonmi? U bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

O‘shanda men 12 yoshda edim. Bir kuni maktabda tanaffusda o‘rtog‘im Yuximenko yonimga kelib:

– Xohlaysanmi, senga maymuncha beraman? – dedi.

Unga ishonmadim. Hozir u ko‘zimni shamg‘alat qiladi-da, biror nayrang ishlatib: “Mana shu “maymuncha” bo‘ladi”, deydi deb o‘yladim. Meni osonlikcha alday olmaysan.

– Mayli, – dedim, – bilamiz bu hiylalarni.

– Yo‘q, – dedi u, – chin gapim. Tirik maymun. U juda yaxshi. Ismi Yashka. Faqat, dadamning jahli chiqyapti-da.

– Kimdan?

– Men bilan Yashkadan-da. “Qayerga yo‘qotsang, yo‘qot”, deyapti. Menimcha, u senikida tursa, yaxshi bo‘lardi.

Darslardan keyin unikiga bordik. Men baribir ishonmayotgandim. Nahotki mening tirik maymuncham bo‘lsa, deb o‘ylardim. Undan maymunning qanaqaligini so‘rayverdim. Yuximenko esa:

– Hozir ko‘rasan, qo‘rqma, u kichkina, – derdi.

Haqiqatan ham u kichkina ekan. Oyoqlarida tik tursa, yarim arshindan* oshmasdi. Yuzlari bujmaygan bo‘lsa-da, boqishlari sho‘x va quvnoq edi.



Yungi qizg‘ish, panjalari esa qop-qora, xuddi qora qo‘lqop kiyib olgan odamning qo‘llariga o‘xshardi. Ustiga ko‘k nimcha kiygizib qo‘yilgan ekan.

Shu payt Yuximenko uni chaqirib qoldi:

– Yashka, Yashka! Beri kel, qara, senga nima beraman! – deb qo‘lini cho‘ntagiga soldi.

Maymuncha: “Ay, ay!” deb chiyilladi-da, ikki sakrab Yuximenkoning qo‘liga chiqib oldi. U darhol maymunchani shinelining* qo‘yniga tiqib oldi-da, ketishimizni aytdi.

Ko‘zlarimga ishonmasdim. Ko‘chadan borayotganimizda qanday ajoyib narsani olib ketayotganimizni, qo‘ynimizda nima borligini hech kim bilmasdi. Yo‘lda Yuximenko unga nimalar berib boqish kerakligini menga tushuntirib borardi:

– Hamma narsa yeydi, nima duch kelsa, beraver. Shirinlikni juda yaxshi ko‘radi. Konfet ko‘rsa, tamom! Qo‘li tegsa, bo‘ldi, albatta to‘ygunicha bo‘kib yeydi. Suyuqlikni va shirin choyni yaxshi ko‘radi. Choyiga ikkita qand solib ber. Qandni alohida tishlab yeyishiga yo‘l qo‘yma: qandni yeb oladi-yu, choyni ichmay qo‘ya qoladi.

Men uning gaplarini eshitib borarkanman: “Unga uchta qand ham kamlik qiladi, shunaqangi shirin, xuddi o‘yinchoq odamchaga o‘xshaydi-ya”, deb o‘ylardim. Shu payt uning dumi yo‘qligi esimga tushib qoldi-da, so‘radim:

– Sen uning dumini kesib tashlaganmisan?

– U makaka, – dedi Yuximenko, – ularda dum bo‘lmaydi.

Uyga yetib keldik. Onam va qizlar tushlik qilib o‘tirishgan ekan. Yuximenko ikkimiz to‘g‘ri ichkariga kirdik.

– Qaranglar, biz nima olib keldik! – dedim men.



Hamma o‘girilib qaradi. Yuximenko shinelini ochgan ham ediki, hech kim hech narsaga tushunib ulgurmasidan, Yashka Yuximenkoning ustidan onamning boshiga sakradi, oyoqlari bilan bir depsinib, idish-tovoq javoniga chiqib oldi. Onamning sochi to‘zg‘ib ketdi.

Hamma o‘rnidan sakrab turib, baqirib yubordi:

– Voy, nima bu, bu nima o‘zi?!

Yashka esa javonga o‘tirib olib, basharasini burishtirar, og‘zini shapillatib, tishlarini g‘ijirlatardi.

Yuximenko hozir qarg‘ish eshitishdan qo‘rqib, sekin eshikka qarab qochdi. Unga hech kim qaramasdi ham, hammaning ko‘zi maymunchada edi. Birdan qizlar bir ovozdan:

– Qanday shirin! – deb yuborishdi.

Onam esa sochini tartibga keltirishga urinardi.

– Bu qayoqdan keldi?

Orqamga qaradim. Yuximenko allaqachon ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan ekan. Demak, endi men uning egasiman. Maymuncha bilan qanday muomala qilishni bilishimni ko‘rsatgim keldi. Qo‘limni cho‘ntagimga solib, boya* Yuximenko chaqirganiday dedim:

– Yashka, Yashka! Beri kel, qara, senga nima beraman!

Hamma kutib turardi. Yashka esa qaramadi ham, qora panjachasi bilan o‘zini qashiy boshladi. Kechgacha Yashka pastga tushmadi, faqat yuqorida sakrab yurdi: javondan eshikka, eshikdan javonga, u yerdan pechkaga.

– Uni kechasi shunday qoldirib bo‘lmaydi, uyni ostin-ustin qilib tashlaydi, – dedi dadam.

Men Yashkani tutishga tushdim. Men javonga yaqinlashsam, u pechkaga sakradi. Pechka tomondan cho‘tka bilan haydasam, u soatga qarab o‘zini otdi. Soat tebranib, to‘xtab qoldi. Yashka esa allaqachon pardalarda chayqalib turardi. U yerdan rasmga sakragan edi, rasm qiyshayib qoldi.

So‘ng, endi Yashka osma lampaga qarab o‘zini otmasmikan deb qo‘rqib ketdim.

Keyin hammamiz bir bo‘lib Yashkaning ortidan quva ketdik. Unga koptok, g‘altak, gugurt otdik va oxiri haydab burchakka taqadik.

Yashka devorga yopishib olganicha tishlarini ko‘rsatib, tilini shapillatib qo‘rqita boshladi. Biz esa uning ustiga jun ro‘mol tashladik-da, ushlab oldik.



arshin – taxminan 0,71 metrga teng qadimiy rus uzunlik o‘lchov birligi
shinel – qalin ustki kiyim
boya – yaqinda, biroz oldin

1. Voqea kimning nomidan hikoya qilib berilmoqda? Buni qanday bildingiz?
2. Hikoyachining yoshi nechada edi?
3. Unga maymunchani kim taklif qildi?
4. Maymunchaning ismi nima edi? Matndan uning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan joyni topib, o‘qing.
5. Yashka uyga olib kelinganda o‘zini qanday tutdi?
6. Onasi va qizlar qanday munosabat bildirishdi?
7. Nega Yuximenko tezda uydan chiqib ketdi?
8. Maymun kechgacha nima bilan mashg‘ul bo‘ldi?
9. Nima uchun hamma Yashkani tutib olishga harakat qildi? Voqea nima bilan tugadi?

Hikoya mazmunini gapirib berishga tayyorlaning. Uning yakuni sifatida o‘z variantingizni o‘ylab toping.

Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi

Viktor Dragunskiy



Viktor Dragunskiy
1913–1972

Viktor Yuzefovich Dragunskiy – mashhur bolalar yozuvchisi, quvnoq va ibratli hikoyalar muallifi. U 1913-yilda Nyu-Yorkda tug‘ilgan. Viktor bolaligidanoq hikoyalar to‘qish, odamlarni kuzatish va ular bilan hazil-mutoyiba qilishni yaxshi ko‘rgan. U turli kasblarda o‘zini sinab ko‘rdi: teatrda aktyor bo‘lib ishladi, sirkda masxarabozlik qildi va yumoristik sahna asarlari yozdi. Keyinchalik esa yozuvchi bo‘lishga qaror qildi.

Dragunskiyning kitoblari do‘stlik, halollik, mehr-oqibat hamda o‘z xatolari ustidan kula bilishga o‘rgatadi. Yozuvchi bolalar hayoti haqida sodda, qiziqarli, samimiy va hazilomuz hikoya qila olgani uchun ham ularning sevimli adibiga aylangan.

Oyimning dahlizda kimgadir aytayotgan gapini eshitib qoldim:

– ...Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi.

U xonaga kirgach, so‘radim:

– Oyi, “Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” nima degani?





– Bu, agar kimdir biror noto‘g‘ri ish qilsa-yu, uni yashirsa, ertami yoki kech u oshkor* bo‘ladi, ya’ni u haqida hamma baribir bilib oladi degani. Shunda u uyatga qoladi va jazosini oladi, – dedi oyim. – Tushundingmi?.. Qani, endi yotib uxla!

Tishimni tozalab, o‘rnimga yotdim, lekin uxlamay, tinmay o‘ylardim: qanday qilib yashirin narsa baribir oshkor bo‘lishi mumkin? Uzoq vaqt uxlay olmadim. Uyg‘onganimda esa allaqachon tong otgan, dadam ishga ketgan, xonada oyim ikkimiz qolgan edik. Yana tishlarimni yuvib, nonushta qilishga o‘tirdim. Avval bitta tuxum yedim. Bunga chidasa bo‘ladi, faqat sarig‘ini yedim xolos, oqini esa bilinmaydigan qilib po‘chog‘i bilan birga ezib, titib tashladim. Keyin oyim likopchani to‘ldirib manniy bo‘tqa olib kelsa, deng.

– Ye! – dedi oyim. – Ming‘ir-sing‘ir qilmasdan ye!

– Manniy bo‘tqani ko‘rishga ko‘zim yo‘q! – dedim men.

Lekin oyim baqirib berdi:

– Ahvolingga bir qara! Xuddi Kasheyning o‘zginasi bo‘lib qolibsan! Ye, ozgina et olishing* kerak.

– Tiqilib qoladi-ku!.. – dedim men.

Oyim oshxonaga chiqib ketdi. Men esa bo‘tqa bilan yolg‘iz qoldim. Uni qoshiq bilan bir-ikki urib ko‘rdim.



Keyin tuz sepdim. Tatib koʻrsam, umuman yeb boʻlmaydi! Shunda, balki shakari kamdir, deb oʻyladim. Shakardan sepib, tatib koʻrdim… battar boʻldi. Men boʻtqani yomon koʻraman, deb aytdim-ku!

Ustiga-ustak, u juda quyuq edi. Agar suyuqroq boʻlganida, koʻzimni chirt yumib, ichib yuborgan boʻlardim. Shu oʻy* bilan boʻtqaga qaynoq suv quydim. Baribir u liqildoq, yopishqoq va yoqimsizligicha qolaverdi. Eng yomoni, uni yutayotganimda tomogʻim oʻz-oʻzidan qisilib, boʻtqani ortga qaytarib tashlayotganday edi. Shunda darhol deraza yoniga yugurib bordimda, likopchadagi boʻtqani koʻchaga uloqtirdim. Keyin darrov ortimga qaytib, stolga oʻtirdim.

Shu payt oyim xonaga qaytib kirdi. Likopchaga qaradi-yu, quvonib ketdi:

– Balli, Denisjon. Barakalla, bolam! Boʻtqaning hammasini bittada yeb qoʻyibsan-a! – deb meni oʻpib qoʻydi.

Shu payt eshik ochilib, xonaga mahalla posboni kirib keldi.

– Assalomu alaykum! – deb u deraza yoniga bordi va pastga qaradi. – Yana kimsan, ziyoli odamlarmish.

– Sizga nima kerak oʻzi? – deb soʻradi oyim jiddiy ohangda.

– Uyalmaysizmi?! Derazadan har xil narsalar tashlayapsiz!

– Tuhmat qilmang. Men hech narsa tashlaganim yoʻq!



– Iye, tashlaganingiz yo‘qmi?! – piching qilib kuldi posbon. Keyin dahliz eshigini ochib baqirdi: – Jabrlanuvchi!

Uyimizga bir amaki kirib keldi. Unga qarashim bilanoq, hammasini tushundim... Amakining boshida shlyapa, shlyapada esa bizning bo‘tqa! Bo‘tqa deyarli hamma yoqda: shlyapaning o‘rtasi, chuqurchasi, tasmasining chetlarida, amakining yoqasi, yelkalari va shimining chap tomonida yoyilib yotardi. U kiriboq, duduqlana boshladi:

– Eng muhimi, men suratga tushgani kkk... ketayotgandim… Birdan mana shu voqea sodir bo‘ldi… Bo‘tqa… mmm… manniy bo‘tqa, shsh... shekilli… Aytgancha, issiq ekan, shlyapadan o‘tib kuydiryapti… Hamma yog‘im bbb... bo‘tqa bo‘lsa, suratga… qqq… qanday qilib tushaman?!

Shu payt oyim menga xo‘mrayib qaradi. Uning ko‘zlari bektoshi uzumidek* yam-yashil bo‘lib ketgandi, bu esa oyimning juda qattiq jahli chiqqanidan darak berar edi.

– Kechirasiz, – dedi u sekin. – Iltimos, ruxsat bering, sizni tozalab qo‘yay, bu yoqqa o‘ting!

Uchalovi dahlizga chiqishdi.



Oyim qaytib kirganida, qo‘rqqanimdan unga qaray olmadim. Lekin o‘zimni qo‘lga olib, uning yoniga bordim va dedim:

– Ha, oyi, kecha to‘g‘ri aytgan ekansiz. Oyni etak bilan yopib bo‘lmas ekan. **Yashirin narsa baribir oshkor bo‘lar ekan!**

Oyim ko‘zlarimga tik qaradi, uzoq tikilib turdi-da, keyin so‘radi:

– Buni bir umrga eslab qoldingmi?

– Ha, – deya javob berdim men.



oshkor – hammaga ma’lum
et olmoq – semirmoq
o‘y – xayol, fikr
bektoshi uzumi – krijovnik buta o‘simligining rezavor mevasi

1. Onasi Denisga “Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” iborasini qanday tushuntirdi?
2. Nima uchun Denis manniy bo‘tqa yeyishni xohlamadi?
3. Denis bo‘tqani nima qildi?
4. Nima uchun ularning uyiga mahalla posboni keldi?
5. Onasi haqiqatni bilgach, qanday munosabat bildirdi?
6. Denis bu voqeadan qanday saboq oldi?

Matnni o‘qing va mazmunini qisqacha gapirib berishga tayyorlaning.

Oshpaz

Kavsar Turdiyeva



Kavsar Turdiyeva
1958

Kavsar Turdiyeva – asosan, bolalar uchun ijod qiluvchi o‘zbek shoirasi va pedagogi. U 1958-yil 6-avgustda Toshkentda ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Maktabni a’lo baholar bilan tamomlagach, universitetda oliy ma’lumot olgan. O‘qituvchi bo‘lib ishlash bilan bir vaqtda adabiyot bilan ham shug‘ullangan.

Kavsar Turdiyeva yozgan she’r va hikoyalar bolalarning tasavvuri, mehribonligi va bilimga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi, bolalarni do‘stlikka chorlaydi, ularning ona tili hamda tabiatga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Gulshoda 4-sinfda o‘qishiga qaramay, uning oshpazligini butun mahalla biladi. Nega deysizmi? Chunki u mastava, moshxo‘rda pishiradi. Tuxumli quymoq pishirishni, kartoshkani somoncha to‘g‘rab qovurishni ham biladi. Oyisining dastyori. Birpasda yonidagi bozorchaga chopqillab chiqib, kerakli narsani xarid qilib keladi.



Mana bugun ham oyisi unga pul berib kartoshkaga yubordi. U “Hozir, oyijon” dedi-da, kattagina bir olmani chaqqon yuvib, tishlagancha bozorcha tomon yugurdi. U xaridini qilib bo‘lgach, yana oyisining oldida “lip” etib paydo bo‘lardi, albatta agarda shu payt uni qo‘shni o‘rtog‘i Ruxshona chaqirib qolmaganida.

– Voy, seni chaqirib chiqmoqchi edim, o‘zing kelib qolganing rosa yaxshi bo‘ldi-da.

Gulshoda bir qo‘lida to‘rvaxaltani o‘ynatib, ikkinchi qo‘lidagi olmani bir tishlab oldi-da, o‘rtog‘ining uni qidirish sababiga qiziqqanidan ko‘zlarini katta-katta ochib so‘radi.

– Nimaga chiqmoqchi eding?

– Oyim uyda yo‘q edilar. Mastava qilmoqchi edim. Qanday qilish esimdan chiqibdi. Sen bilasan-ku!

– Bilaman! – dedi Gulshoda olmaning oxirgi bo‘lagini og‘ziga solarkan. – Men senga shunday mastava pishirishga yordam berayki, oying uni ichib, senday qizi borligidan boshi ko‘kka yetgudek bo‘ladi.

– Unda tezroq kir, – dedi Ruxshona.

Gulshoda yugurib oshxonaga kirdi va Ruxshonaning qilgan ishlarini baholay boshladi:

– Kartoshkani mayda to‘g‘rabsan, sabzini buncha katta to‘g‘rading? Bularni maydala. Piyoz archmabsan-ku!

– Archmoqchi edim, ko‘zim achiydi-da, – lablarini burishtirdi Ruxshona.



– Ko‘zingni doka bilan bog‘lab, undan keyin to‘g‘ra. Shunda achimaydi, – maslahat berdi Gulshoda.

– Unda yaxshi ko‘rinmaydi-ku.

– Ko‘rinadi. Men doim shunday qilaman.

Ruxshona boshqa xonadan katta doka olib keldi. Gulshoda dokani ikki bukladi-da, uning ko‘zini bog‘lab qo‘ydi. So‘ng Ruxshona ishga kirishdi.

– Voy, baribir ko‘zim achiyapti...

Gulshoda unga quloq solmasdan qozonni gazga qo‘yib, tagini yoqdi.

– Oldin yog‘ sol, keyin piyozni. Piyoz oltin rangga kirganda... Voy, go‘sht qani? Gazni o‘chir. Oldin go‘shtni to‘g‘raylik.

Qozonga go‘sht, kartoshka, sabzi ketma-ket solindi.

– Endi biroz qovur, keyin suv sol... Mana suv ham qaynab chiqdi. Biroz kutib, so‘ng guruch solsang bo‘ladi. Yarim piyola. Voy, guruchni hali tozalamaganmiding?

– O‘zi toza-ku!

– Ichida toshi bo‘lsa-chi! Kimgadir tushib qolsa, tishini sindiradi.

– Mening tishlarim baquvvat, sindirolmaydi. Mayli, tozalay qolay.



Shu payt tashqaridan oyisining “Gulshoda” deb chaqirgan ovozi keldi.

– Seni oying qidirib yuribdi, – dedi oynadan mo‘ralab Ruxshona.

– Voy, men kartoshka olib kelishim kerak edi-ku, – deganicha, Gulshoda oshxonadan yugurib chiqdi.

Gulshoda qo‘lida kartoshka ko‘tarib uyiga kelganda, onasi qoshlarini chimirib, xonasidan chiqdi.

– Xo‘sh, olgan kartoshkang qani, qayerlarda yuribsan?

– Men qo‘shni dugonam Ruxshonaga yordam berdim.

– Seni bir soatdan beri kutib, ovqat qilmay o‘tiribman. Bo‘ldi, endi uyda o‘tirasan. Jazoying shu!

– Oyijon, men noto‘g‘ri ish qildimmi? Axir, yaxshilik qildim-ku! O‘zingiz har doim: “Odamlarga yordam beringlar”, deysiz. Endi esa buning uchun jazolayapsiz...

1. Nima uchun hikoya bunday nomlangan?
2. Nima uchun butun mahalla Gulshodani taniydi?
3. U qanday taomlarni pishira oladi?
4. Nima uchun Gulshoda uyiga o‘z vaqtida qaytmadi?
5. Qizlarga doka nima uchun kerak edi?
6. Oyisi qizini nima uchun jazoladi?
7. Nima uchun Gulshoda e’tiroz bildirdi?
8. Hikoyaning asosiy g‘oyasi nima?

Hikoyaning davomini o‘ylab toping.

Matnni gapirib berishga tayyorlaning. Hikoya ertakka aylanishi uchun unga biror voqea qo‘shing.

Beminnat yaxshilik

Kavsar Turdiyeva

Gulshoda va Akbarshoh – ajoyib bolalar. Ular bir-birlariga qilgan yaxshiliklarini qayta-qayta eslatishdan charchashmaydi. Gulshoda deydi:

– Esingdami, o‘tgan kuni senga ingliz tilidan tarjima qilib bergandim, hatto rahmat ham aytmagansan!

– Sen bilan birga yarim soat she’r yodlaganim esingdan chiqdi-da, – bo‘sh kelmaydi Akbarshoh.

– Agar bilsang, men ham devorga urilganingda yarim soat peshonangga tanga bosib turganman!!!

– Men-chi, o‘sha polyuvgichingning mixini qoqib bo‘lgunimcha qo‘llarim qadoq bo‘lib ketgan. Yaxshilikni bilmaganing uchun hozir o‘sha mixni sug‘urib tashlayman, keyin qanday xohlasang, o‘zing qoqib olaver!

– Unda mening sirkulimni qaytarib ber!

– Hoy, bo‘ldi qilinglar-e! Agar shunaqa qilaversanglar, qilgan yaxshiliklaringiz yaxshilik bo‘lmay qoladi, – oraga tushdi ularning buvisi.

– Unda nima? Yomonlik bo‘lib qoladimi? Menga uning gaplarini eshitish yoqadi, deb o‘ylaysizmi?! – nolidi Akbarshoh.

– Menga-chi? – norozi ohangda to‘ng‘illadi Gulshoda.

– Bunday holatda qilgan yaxshiligingiz minnat* bo‘lib qoladi, – dedi buvi.



– Unda biz nima qilishimiz kerak?

– Sizlar faqat o‘zingiz haqingizda emas, balki yaqinlaringiz va bir-biringiz haqingizda ham g‘amxo‘rlik qilishingiz kerak.

Bolalar boshlarini egishdi.

– Demak, kim nima xohlayotganini oldindan seza bilish kerak ekan-da?

– Bizning ham tilaklarimizni birov sezarmikan? – yana to‘ng‘illadi Gulshoda.

– Bu oson ish emas, lekin uddalay olsangiz, mo‘jizalar yuz bera boshlaydi.

– Xo‘p, buvijon, kechiring.

Ular hech qanday mo‘jiza kutmagan holda xonadan indamay chiqib ketishdi. Biroz vaqt o‘tgach, Akbarshoh buvisining ko‘chada qo‘shnisi bilan gaplashib turganini ko‘rib qoldi. U dadasining qulog‘iga nimadir deb shipshidi va ular birgalashib o‘rindiq yasashdi. Endi bu o‘rindiqda qo‘shnilargina emas, balki Akbarshohning do‘stlari, Gulshodaning dugonalari ham yig‘iladigan bo‘lishdi.

Gulshoda va Akbarshoh yaqinlarining tilaklarini oldindan sezishga harakat qilishardi. Ularga nima kerakligini – shirin so‘zmi yoki yordammi – tushunishga intiladigan bo‘lishdi. Oyisini kuttirib qo‘ymaslik uchun Gulshoda idishlarni yuvar, Akbarshoh esa chiqindilarni chiqarib tashlardi. Ular janjallarga chek qo‘yib, uy vazifalarini o‘z vaqtida bajaradigan bo‘lishdi.

Mo‘jiza ham o‘zini ko‘p kuttirmadi. Kattalar ham ularning gaplariga quloq soladigan, ba’zan esa shunchaki bolalarning tilaklarini oldindan sezadigan bo‘lishdi.

Shunday qilib, dadasi Akbarshohga yog‘ochni kuydirib rasm solish asbobini, oyisi esa Gulshodaga kiyimlarini bezash uchun munchoqlar olib berdi. 8-mart bayramida esa bolalar oyisi va buvisiga o‘z qo‘llari bilan yasagan sovg‘alarini taqdim qilishdi. Gulshoda ular uchun munchoqli ro‘molchalar to‘qidi.

Akbarshoh esa taxtachaga go‘zal gul suratini chizdi, so‘ng kuydirib ishlov berdi. Bundan quvongan oyisi va buvisi sovg‘alarni hammaga ko‘rsatib, ular bilan faxrlanishdi. Shu tariqa butun mahalla yosh hunarmandlar* haqida bilib oldi.

Xayrli ishlar haqida bolalarning o‘zlari emas, balki atrofdagilarning fikrini eshitish juda yoqimli edi. Shuningdek, bolalar kichkina bir sirni ham bilib olishdi: agar yaxshilik chin yurakdan qilinsa, u albatta o‘ziga qaytib kelar ekan.

minnat qilmoq – yaxshilikni yuzga solmoq
hunarmand – uyida yoki do‘konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi kasb-hunar egasi; kosib

1. Nima uchun Gulshoda va Akbarshoh tortishib qolishdi?
2. Ularni kim tinchlantirdi?
3. Buvining aytishicha, nima uchun qilingan yaxshiliklarni minnat qilish mumkin emas?
4. Akbarshoh nima yasashga qaror qildi?
5. Bolalar urishishni to‘xtatganlaridan keyin ularning hayotida nima o‘zgardi? Matndan o‘qing.
6. Ular oyisi va buvisiga qanday sovg‘alar berishdi?
7. Bunday xayrli ishlaridan so‘ng bolalar qanday tuyg‘ularni his qilishdi?
8. Ular qanday sirni bilib olishdi?
9. Qanday holatda ishlar ezgu amallarga aylanadi? Matndan o‘qing.

Matnni o‘qib, mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

Odobli bo‘lay deyman

Kavsar Turdiyeva

Sizningcha, bu she’r nima haqida? Ushbu so‘zlarni kim aytgan bo‘lishi mumkin?

Har doim, har doim
Eslatar dadam, oyim
Eng odobli bo‘lishni,
Salom berib yurishni.

“To‘polon qilma!” – derlar,
“Qizlarni urma!” – derlar.
Axir meni Maysara
O‘zi qildi masxara.

Odobli bo‘lish uchun
Ishlatsam ham ko‘p kuchim,
Esimdan chiqar har vaqt
Deyish “kechiring”, “rahmat”.





Nega? O‘zim bilmayman,
Daftarlarni bo‘yayman.
Yangi daftar tutaman,
Yana gap eshitaman.

Menga yoqadi faqat
Do‘stim mingan samokat.
So‘ramasdan olaman,
Va uyalib qolaman.

Agarda mumkin bo‘lsa,
Har daqiqa, har lahza
Odobli bo‘lish sirin
Iltimos, aytib bering!

1. She’rda ota-ona bolasiga doim nimani eslatadi?
2. Bola qizlarni urmaslik haqidagi qoidani nima uchun buzdi?
3. Bola qanday inson bo‘lishni orzu qiladi?
4. Bola odobli bo‘lishga qanchalik harakat qilmasin, qaysi so‘zlarni aytishni unutib qo‘yadi?
5. Bola do‘stining samokatini olgach, nega uyalib qoladi?
6. Bolaning harakatlariga qarab, uni yomon bola deyish mumkinmi yoki u shunchaki biroz sho‘xmi?
7. Bola she’r so‘ngida kitobxondan qanday sirni aytib berishni iltimos qilmoqda? Siz unga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?

She’rni yod oling.